
O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining

f a r m o n i

Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurstejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha uzoq muddatga mo'ljallangan strategiyaning mavjud emasligi yer va suv resurslaridan samarali foydalanishga, sohaga investitsiyalarni keng jalb etishga, ishlab chiqaruvchilarning yuqori daromad olishiga va mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirishga to'sqinlik qilmoqda.

Ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish, yer va suv munosabatlarini takomillashtirish, qulay agrobiznes muhitini va yuqori qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash, sohaga bozor mexanizmlarini, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, shuningdek, ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanish hamda kadrlar salohiyatini oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

xalqaro tashkilotlar va ekspertlar ishtirokida ishlab chiqilgan **O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning**

2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi (keyingi o'rinlarda - Strategiya) 1-ilovagamuvofiq;

O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xarita"si (keyingi o'rinlarda - "Yo'l xarita"si) **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

2. Quyidagilar Strategiyani amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari etib belgilansin:

ozuq-ovqat mahsulotlari xavfsizligini ta'minlash va iste'mol ratsionini yaxshilash, talab etiladigan miqdordagi ozuq-ovqat mahsulotlari yetishtirishni nazarda tutuvchi ozuq-ovqat xavfsizligi davlat siyosatini ishlab chiqish va joriy etish;

qishloq xo'jaligi mahsulotlarini xarid qilish va sotishda bozor tamoyillarini keng joriy etish, sifat nazorati infratuzilmasini rivojlantirish, eksportni rag'batlantirish, maqsadli xalqaro bozorlarda raqobatbardosh, yuqori qo'shilgan qiymatli qishloq xo'jaligi va ozuq-ovqat tovarlari ishlab chiqarishni nazarda tutuvchi qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish;

qishloq xo'jaligi va ozuq-ovqat tarmog'ini modernizatsiyalash, diversifikatsiya qilish va barqaror o'sishini qo'llab-quvvatlash uchun xususiy investitsiya kapitali oqimini ko'paytirishni nazarda tutuvchi sohada davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish mexanizmlarini joriy qilish;

yer va suv resurslari, o'rmon fondidan oqilona foydalanishni nazarda tutuvchi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish tizimini takomillashtirish;

qishloq xo'jaligida davlat boshqaruvi tuzilmasini restrukturizatsiya qilish va yanada rivojlantirishni nazarda tutuvchi boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish;

fermer xo'jaliklarida mehnat unumdorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash, yuqori qo'shilgan qiymat yaratishga qaratilgan tarmoq dasturlarini ishlab chiqish orqali davlat xarajatlari samaradorligini oshirish va bosqichma-bosqich qayta taqsimlash;

qishloq xo'jaligida ilmiy-tadqiqot, ta'lim va maslahat xizmatlarining ishlab chiqarish bilan integratsiyalashgan bilim va ma'lumotlarni tarqatishning samarali shakllarini qo'llashni nazarda tutuvchi ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish;

qishloq joylarini muvozanatli va barqaror taraqqiy ettirishga ko'maklashishni nazarda tutuvchi qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini amalga oshirish;

zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish orqali statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tarqatishning ishonchli uslublarini joriy etishni nazarda tutuvchi tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish.

3. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (keyingi o'rinlarda - Muvofiqlashtiruvchi kengash) **3-ilovaga** muvofiq tarkibda tasdiqlansin.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi **Muvofiqlashtiruvchi kengashning ishchi organi** etib belgilansin.

4. Muvofiqlashtiruvchi kengash (A.N.Aripov):

Strategiyaning to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etsin hamda belgilangan indikatorlarga erishish ustidan doimiy monitoring olib borsin;

bir oy muddatda Strategiyaning har bir asosiy yo'nalishi bo'yicha malakali mutaxassislardan, shu jumladan, xorijiy ekspertlardan iborat tarkibda doimiy ishlovchi ishchi guruhlarini, ularga xalqaro moliya tashkilotlari, xorijiy davlatlar va boshqa donorlar grantlari, O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining byudjetdan tashqari mablag'lari, shuningdek, qonun hujjatlari bilan taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan ish haqi va boshqa to'lovlarni belgilagan holda shakllantirsin;

Strategiya va "Yo'l xarita"sini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari sifatli va o'z muddatida ishlab chiqilishi hamda belgilangan tartibda kiritilishini ta'minlasin;

har yili 1-dekabrga qadar joriy yil uchun belgilangan vazifalarning bajarilishini chuqur tahlil etgan holda Strategiyaning amalga oshirish yuzasidan kelgusi yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturini tasdiqlash bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori loyihasi sifatli ishlab chiqilishi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga kiritilishini tashkil etsin;

har chorakda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasiga Strategiyaning

amalga oshirish bo'yicha bajarilgan ishlar haqida axborot taqdim etib borsin.

5. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi **bir oy muddatda** mazkur Farmonda nazarda tutilgan vazifalarning to'liq va o'z muddatlarida bajarilishini ta'minlash maqsadida vazirlik tuzilmasida qo'shimcha 4 ta shtat birligidan iborat mas'ul boshqarma tashkil etsin hamda xorijiy ekspertlar jalb etilishini ta'minlasin.

Xorijiy ekspertlarni jalb etish vazirlikning byudjetdan tashqari hamda xalqaro moliya institutlarining grant va texnik ko'mak mablag'lari hisobidan amalga oshirilishi belgilansin.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-oktyabrdagi

PQ-4486-son "Suv resurslarini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi huzurida Suv xo'jaligi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi tashkil etilganligi hamda unga suv xo'jaligi sohasida investitsiya loyihalarini amalga oshirish yuklatilganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

Agrosanoat majmui va oziq-ovqat ta'minoti sohasidagi loyihalarni amalga oshirish agentligi mavjud investitsiya loyihalari, loyihalarni amalga oshirish guruhlari, shuningdek, huquqlar, majburiyatlar va shartnomalar saqlab qolingan holda O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tarkibiga o'tkazilsin.

7. O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti, davlat maqsadli jamg'armalari hamda vazirlik va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari byudjetlari parametrlarida qishloq xo'jaligi xarajatlari tarkibini diversifikatsiya qilishning maqsadli yo'nalishlari **4-ilovaga** muvofiq belgilansin.

8. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga:

Strategiya o'z vaqtida va samarali ijro etilishi ustidan parlament va jamoatchilik nazoratini o'rnatish;

amalga oshirilgan ishlar to'g'risida vazirlik va idoralar hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hokimlarining axborotlari har chorakda Senat, Qonunchilik palatasi va tegishlicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi hamda xalq deputatlari viloyat Kengashlarining majlislarida eshitib borilishini ta'minlash tavsiya etilsin.

9. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Adliya vazirligi, boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda ikki oy muddatda qonun hujjatlariga ushbu Farmondan kelib chiqadigan o'zgartish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritsin.

10. O'zbekiston Milliy axborot agentligi va O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi Qishloq xo'jaligi vazirligi bilan birgalikda ushbu Farmonning mazmun-mohiyati hamda maqsad va vazifalari ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

11. Mazkur Farmonning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri ~~A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari~~ Z.Sh.Nizomiddinov zimmasiga yuklansin.

Toshkent shahri,

2019-yil 23-oktyabr

O'zA

2019-10-24 16:37:28